

UZBEKISTAN LAW REVIEW



ISSUE 2
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2025
№2**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович — юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович — ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжаҳон Акмалжон ўғли — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой — ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёқубович — ю.ф.н., профессор.

Маҳкамов Отабек Мухтарович — ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна — ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич — ю.ф.д., доц.

Беков Ихтиёр — ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Соҳибжонович — ю.ф.д., проф.
в.б.

Ҳазратқулов Одилбек Турсунович — юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович — ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович — ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич — ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

**Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович**
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.

2025 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайлиги Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университети мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Наشريёт муҳаррири: **Н. Ниязова**

Техник муҳаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди — 28.06.2025

Наشريёт ҳисоб табоғи — 5

«IMPRESS MEDIA» босмаҳонасида босилди

Адади — 100 нусха.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ

2/2025

Sharipov Firdavs Xolnazarovich
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati

QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TAKOMILLASHUVI: ISLOHOTLAR VA HUQUQIY ASOSLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish va uning sifat hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy islohotlar tahlil qilingan. Xususan, Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontsepsiyasining ahamiyati va amaliy natijalari ochib berilgan. Maqolada sohaviy kodekslar qabul qilinishi, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, huquqiy ekspertizalar tizimi, "aqli tartibga solish" modeli kabi yangicha yondashuvlar tahlil etilgan. Qonun ijodkorligi jarayonida xalqaro tajriba va milliy sharoit uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada qonun ijodkorligi sub'ektlarining institutsional faoliyati, parlament va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, normativ-huquqiy hujjatlar ta'sirini baholash mexanizmlari o'rganilgan. Huquqiy statistika tahlili orqali 2015–2024 yillardagi qonun loyihalari bilan bog'liq raqamli dinamika keltirilgan. Umuman, maqolada qonun ijodkorligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy va amaliy ahamiyati, muammolari va istiqbolli yo'nalishlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qonun ijodkorligi, norma ijodkorligi, huquqiy islohotlar, qonunchilik tashabbusi, jamoatchilik muhokamasi, parlament faoliyati, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ekspertiza.

Abstract. This article provides an analysis of legal reforms aimed at improving legislative activity and enhancing its quality and effectiveness in Uzbekistan. In particular, the importance and practical outcomes of the Concept for the Improvement of Norm-Making Activities are highlighted. The paper examines innovative approaches such as the adoption of sectoral codes, ensuring public participation, the legal expertise system, and the "smart regulation" model. Special attention is given to the harmonization of international experience with national conditions in the legislative process. The article also explores the institutional role of legislative actors, the interaction between parliament and civil society, and mechanisms for assessing the impact of normative legal acts. Legal statistics are used to illustrate the numerical dynamics of draft laws from 2015 to 2024. Overall, the article provides a scholarly analysis of the legal and practical significance, challenges, and future directions of ongoing legislative reforms.

Keywords: legislative activity, norm-making, legal reforms, legislative initiative, public discussion, parliamentary activity, normative legal acts, legal expertise.

Аннотация. В данной статье представлен анализ

правовых реформ, направленных на совершенствование законотворческой деятельности и повышение её качества и эффективности в Узбекистане. В частности, раскрыты значение и практические результаты Концепции по совершенствованию нормотворческой деятельности. Проанализированы такие новаторские подходы, как принятие отраслевых кодексов, обеспечение участия общественности, система правовой экспертизы и модель «умного регулирования». Особое внимание уделено гармонизации международного опыта с национальными условиями в процессе законотворчества. Также в статье исследуются институциональная деятельность субъектов законотворческой инициативы, взаимодействие между парламентом и обществом, а также механизмы оценки воздействия нормативно-правовых актов. На основе правовой статистики приведена цифровая динамика законопроектов за 2015–2024 годы. В целом, в статье научно проанализированы правовое и практическое значение, проблемы и перспективные направления проводимых реформ в сфере законотворчества.

Ключевые слова: законотворчество, нормотворчество, правовые реформы, законодательная инициатива, общественное обсуждение, деятельность парламента, нормативно-правовые акты, правовая экспертиза.

Kirish

Har qanday davlatda islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida yillar davomida shakllangan qonunchilik bazasi, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonining sifati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, qonun ijodkorligi o'ziga xos murakkab harakatlarni qamrab oladigan, jamiyatda huquq normasiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan to tegishli qonunchilik hujjatining kuchga kirib, uning ijrosi o'rganishini amalga oshirishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladigan tizimli jarayon ekanligi barchamizga ma'lum.

Davlatimizning taraqqiyotida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini modernizatsiya qilish va huquqiy davlat barpo etish yo'lida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qonun ijodkorligi faoliyati davlat boshqaruvi samaradorligining muhim omiliga aylanmoqda. Mamlakatimizda ro'y berayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro maydondagi integratsiya jarayonlarining faollashuvi, shuningdek, global raqamlashtirish tendentsiyalari qonun ijodkorligi faoliyatini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Alohida qayd etish kerak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [1], Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [2], «O'zbekiston – 2030» strategiyasida [3] belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda.

Metodologiya

Mazkur maqolada qonun ijodkorligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tizimli tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv asos qilib olindi. Ilmiy tahlil jarayonida normativ-huquqiy tahlil metodi, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy evolyutsion yondashuv hamda iqtisodiy-huquqiy ta'sir tahlili kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu maqolada nafaqat huquqiy normalar, balki ularning amaliyotda qanday tatbiq etilayotgani va mavjud muammolar ham tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Ta'kidlash joizki, 2018 yili 8 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5505-son Farmoni [4] bilan qabul qilingan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontsepsiyasi huquq ijodkorligi sohasida tub burilish yasadi. Quyida uning ayrim jihatlarini tahlil qilamiz.

Avvalo, ijtimoiy munosabatlarni tarqoq holda tartibga solish, formal qonunlarni qabul qilish amaliyotiga to'liq barham berilgan. Natijada, qabul qilingan qonunlarning sifati oshdi, ularni tartibga solishdagi ahamiyati kuchaydi. Bu esa o'z navbatida huquqiy kolliziyalarga, huquqni qo'llash amaliyotida turlicha talqin qilish holatlariga yo'l qo'mayapti.

Shu bilan birga, muayyan sohaga taalluqli ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan bir nechta qonunlar o'rni, yagona kodeks qabul qilish amaliyoti muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Fuqarolik protsessual kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, Mehnat kodeksi hamda Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi, Soliq kodeksi va Saylov kodeksi qabul qilindi. Ayni paytda Suv kodeksi milliy parlamentimiz tomonidan qabul qilingan bo'lsa, Sog'liqni saqlash, Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi, Ekologiya, Axborot, Tadbirkorlik kabi yangi kodekslar loyihalari ustida ishlar amalga oshirilmoqda.

Qonun ijodkorligining institutsional tuzilmasini takomillashtirish borasida 2017 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi [5] va parlament faoliyati ilmiy jihatdan ta'minlandi. 2023 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti negizida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzurida Parlament tadqiqotlari instituti tashkil etildi [6].

Norma ijodkorligi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2019 yilda Oliy Majlis palatalari yuridik xizmatlari negizida Yuridik boshqarmalar tashkil etilganligi [7] muhim ahamiyat kasb etdi.

2020 yil 20 yanvarda bo'lib o'tgan Qonunchilik palatasi to'rtinchi chaqiriqning birinchi majlisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan: «Hozirgi kunda – O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oldimizda o'ta dolzarb va murakkab vazifalar turibdi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun avvalo qonun ijodkorligi sohasida ishni butunlay yangicha tashkil etishimiz kerak» [8], degan fikr ilgari surildi.

Shundan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarni ish-

lab chiqishda xalqaro tajriba va milliy qonunchilik amaliyotini uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Masalan, 20 dan ortiq rivojlangan davlatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Turkiya kabi rivojlangan davlatlarning qonun ijodkorligi sohasidagi tajribasi chuqur o'rganilib, milliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda joriy etilmoqda.

Yana bir muhim jihat, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda jamoatchilik fikri inobatga olinadigan bo'ldi. Darhaqiqat, qonun ijodkorligi jamoatchilik fikri bilangina samarali va xalqchil bo'ladi. Sababi oddiy, qonunlar mohiyatan insonlar uchun, ularning hayotini yaxshilash uchun qabul qilinadi. Shunday ekan, qonunlarni qabul qilish jarayonida fuqarolarning xohish-istaklariga quloq tutish qonunlarning hayotiy va sifatli bo'lishida muhim omil bo'ladi. Jumladan, Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytida «Jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan qonun loyihalari» maxsus rukni [9] tashkil etilgan. Unda qonun loyihalari muntazam ravishda xalqimiz muhokamasi uchun joylashtirib borilayotgan bo'lib, 2020-2024 yillarda 18 ta qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan. Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan qonun loyihalari yuzasidan aholi o'rtasida ochiq muhokamalar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'lgan.

Qonun loyihalarining aholi bilan keng muhokama qilinishi, ularning fikr-mulohazalari va takliflari bevosita joyiga chiqib o'rganilishi, bu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirdi, ayni paytda mamlakatda qonun ustuvorligi printsiplarini ro'yobga chiqishga xizmat qildi. Bu esa, palataning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyatini yanada takomillashtirish, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarda tizimlashtirilishi va unifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan qonun hujjatlarini bugungi kun talablari asosida qayta ko'rib chiqib, maqbullashtirish imkonini bermiqda.

Har bir qonun loyihasini yoki masalani siyosiy partiyalar fraksiyalarining yig'ilishlarida dastlabki tarzda ko'rib chiqilmasdan turib, Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibiga kiritilmaslik printsiplari qat'iy qoidaga aylantirildi. Qonun loyihalarini ko'proq siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalarda muhokama qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Ushbu amaliyot qonun loyihalarini tashabbuskor sub'ekt vakillari, mutasaddi idoralar mutaxassislari va ekspertlar ishtirokida har tomonlama ko'rib chiqqan holda maromiga yetkazish imkonini bermiqda.

Aytish kerakki, 2021 yil 20 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni [10] norma ijodkorligi faoliyatini tizimli asosda tashkil etish hamda to'g'ridan-to'g'ri amal qilish mexanizmlarini o'z ichiga olgan bo'lib, qonunchiligimizda mavjud bo'lmagan yangi tartib va qoidalar bilan yanada takomillashtirildi. Xususan, qonun hujjatlarini qabul qilish asoslari va tartibi aniq belgilandi. Unga ko'ra, qonun bilan tartibga solinadigan masalalar bo'yicha qonunosti hujjatlarini qabul qilishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy mustahkamlandi.

Shu bilan birga, Qonunda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga, atrof-tabiiy muhitga ta'sir qiluvchi loyihalar majburiy jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi belgilandi. Qonunda iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik ekspertizalarni o'tkazishning aniq mexanizmlari va tartibi qonun darajasida mustahkamlandi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonun bilan qonun hujjatlarining mamlakat iqtisodiyoti, fuqarolarning hayoti va turmush tarzi hamda tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati va ishbilarmonlik muhitini tartibga solishdagi ta'sirchanligi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni rejalashtirish, ishlab chiqish bosqichlarida ularning ta'sirini majburiy baholashni nazarda tutuvchi printsipliy yangi tizim joriy etildi.

“Aqlli tartibga solish” (Smart regulation) tamoyillarining joriy etilishi qonun ijodkorligi faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Bu model doirasida qonun loyihalarining jamiyat hayotiga ta'sirini baholash (Regulatory Impact Assessment), tartibga solish yukini kamaytirish (Regulatory burden reduction) kabi zamonaviy vositalar qo'llanilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilgari qonunosti hujjatlari qonunlarning ijro mexanizmini belgilab beruvchi asosiy vosita bo'lib kelgan bo'lsa, keyingi yillarda qonunlarning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishiga ustuvorlik qaratilmoqda. Qonun loyihalarining soni va hajmi oshib bormoqda. Taqqoslash uchun aytsek, Qonunchilik palatasi tomonidan 2024 yilda 193 ta qonun loyihasi ko'rib chiqilib, shundan 121 tasi alohida qonun sifatida qabul qilingan bo'lsa, 2020 yilda 149 ta qonun loyihasi ko'rib chiqilib, 62 tasi alohida qonun sifatida qabul qilingan. 2015 yilda esa 60 ta qonun loyihasi ko'rib chiqilib, 15 tasi alohida qonun bo'lib qabul qilingan. 2020-2024 yillar mobaynida palataga kiritilgan 35 ta qonun loyihasi qayta ishlanishi, ulardagi normalar yanada takomillashtirilishi uchun mas'ul qo'mitalarga qaytarildi. Bu Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihalarining jiddiy qayta ishlanib, maromiga yetkazilayotganidan dalolatdir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining qonun ijodkorligi jarayonidagi mas'uliyati oshirildi. Qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilinayotganda, qoida tariqasida, qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ekti yoki uning vakili ma'ruza bilan chiqishi belgilandi. Ushbu amaliyot qonun loyihalarini tayyorlash bo'yicha tashabbuskor idoraning mas'uliyati yanada oshishiga, loyihalar sifatining yaxshilanishiga, sub'ektlarning qonun ijodkorligi jarayonidagi faolligini yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Natijada qonun loyihasining birinchi o'qish jarayonidagi muhokamasi tom ma'noda jonlandi.

Qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi natijasida deputatlar korpusining qonun ijodkorligi faoliyati samarali va yildan yilga qonunchilik tashabbusidagi ulushi ortib bormoqda. Raqamlarga e'tibor bersak, agar 2015 yilda deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida boryo'g'i 8 ta qonun loyihalarini kiritilgan bo'lsa, 2018 yilda 23 tani va 2024 yilda 22 tani tashkil etdi. Bu Qonunchilik pal-

atasiga kiritilayotgan qonun loyihalarining o'rtacha 15 % tashkil etdi. Alohida ta'kidlash kerakki, parlamentimiz tarixida bunday ko'rsatkich bo'lmagan.

Saylovchilar, shu jumladan partiya elektorati manfaatlaridan kelib chiqib, deputatlarning qonunlarning sifatiga, kontsepsiyasiga nisbatan talabi sezilarli ravishda kuchaygan. Natijada 2020-2024 yillar davomida muhokama qilingan qator qonun loyihalarini jiddiy munozara va bahslarga sabab bo'lib, ovoz berish yakunlariga ko'ra 26 ta qonun loyihasi rad etilgan hamda tashabbuskor sub'ektga qaytarilgan.

Yana bir yangilik — qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu amaliyot quyi palatada ko'rib chiqilib, qabul qilinayotgan qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarga mosligini ta'minlash orqali mamlakatimizning xalqaro huquqdagi majburiyatlarining to'laqonli bajarilishiga erishish, O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda jahondagi nufuzini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

2023 yil mamlakatimiz hayotida tub burilish yasagan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi qonun ijodkorligi sohasida ham muhim yangilanishlarga zamin yaratdi. Bosh Qomusimizning 98-moddasida [11] qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlarining vakolatlari kengaytirilib, ularning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki yanada faollashtirildi. Bu esa qonun ijodkorligi jarayonining demokratik tamoyillar asosida rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu erishilgan yutuqlar xalqaro reytinglarda ham o'z aksini topmoqda. 2017-2023 yillarda O'zbekistonning “Qonun ustuvorligi” (Rule of Law) indeksi bo'yicha 5 pog'ona, “Jahon boshqaruv ko'rsatkichlari” (WGI) indeksida esa 24 pog'ona yuqorilangani, “Jahon adolat loyihasi”dagi [12] o'zni muntazam yaxshilab borayotgani fikrimizning isbotidir. Bu ko'rsatkichlar ortida izchil islohotlar, tizimli o'zgarishlar va qonun ijodkorligi sifatini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar mujassam.

Xulosa

Qonun ijodkorligi sohasida erishilgan yutuqlar bilan birga, hal etilishi lozim bo'lgan bir qator dolzarb vazifalar ham mavjud. Jumladan:

birinchidan, qonun ijodkorligi faoliyatida jamiyat ehtiyojlarini chuqur o'rganish, global innovatsiyalar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi hamda rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olish va istiqbolli prognozlash muhim;

ikkinchidan, qonunchilik bazasini tizimlashtirish va kodifikatsiyalash ishlarini izchil davom ettirish lozim. Bunda bir-birini takrorlovchi va eskirgan qonun normalarini bartaraf etish, sohaviy kodekslarni qabul qilish orqali qonunchilik tizimini optimallashtirish talab etiladi;

uchinchidan, mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi jarayonlarining jadallashishi hamda

xalqaro huquqiy tuzilmalarga integratsiyalashuvi milliy qonunchiligimizni xalqaro standartlar va talablarga muvofiqlashtirishni, ilg'or xorijiy tajribani milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda joriy etish taqozo etmoqda;

to'rtinchidan, bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo sharoitida qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish bo'yicha ishlar tizimli olib borilishi kerak. Ya'ni, qonunlarning barqarorligini ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Qonun ijodkorligi jarayonida keng jamoatchilik, ekspertlar, olimlar, fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish lozim. Qonun loyihalarini muhokama qilishda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim;

beshinchidan, qonunlarning tizimli asosda qabul qilinishi xuddi shunday tizimli tarzda ijro etilishi shart. Shu sababli, qabul qilinayotgan qonunlarni aholining keng qatlamlariga yetkazish, ularning ijrosi va qo'llanilishi ustidan qat'iy va izchil nazoratni amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratish zarur;

Umuman, oldimizda qonun ijodkorligiga yangicha yondashuvlarni joriy etish, maqbul, mukammal, sifatli, xalqchil va samarali qonunlarni qabul qilish kabi muhim vazifalar turibdi. Pirovardida esa bu jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yil.
2. Qonunchilik ma'lumotlarining milliy bazasi. 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Qonunchilik ma'lumotlarining milliy bazasi. 11.09.2023 y. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
4. Qonunchilik ma'lumotlarining milliy bazasi. 09.08.2018 y. №06/18/5505/1639.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashining 29.12.2017 yildagi 1399 III/QQ 283 III sonli Qo'shma qarorlari. <https://www.norma.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 02.05.2023 yildagi 3129-IV sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/6501774>
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 25.01.2019 yildagi 2304-III-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5168728>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3303>
9. <https://www.parliament.gov.uz/regulation/>
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021 yil, №4, 288-modda.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yil.
12. <https://worldjusticeproject.org/sites/default/files/documents>

/Uzbekistan_2.pdf?utm